

# FIF - “Ipoteka-bank” MKO‘B birinchi navbatdagi krediti III

<b>Mamlakat:</b>	O‘ZBEKISTON
<b>Loyiha raqami:</b>	52285
<b>Faoliyat sohasi:</b>	Depozitar kredit (banklar)
<b>Bildirishnoma turi:</b>	XUSUSIY
<b>Ekologik toifasi:</b>	FI
<b>Tasdiqlanish muddati</b>	2020-yil 2-sentabr
<b>sanasi: Qaysi</b>	Tasdiqlangan
<b>bosqichdaligi:</b>	kuni: 2020-yil
<b>Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan</b>	5-oktabr

## Loyiha mazmuni

Ushbu loyiha Bankning COVID-19 pandemiyasiga javobi doirasida ma’qullandi. Loyihaning amalga oshirilishini kechiktirmaslik maqsadida Bank prezidenti Axborotdan erkin foydalanish siyosatining V bo’limiga muvofiq loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) odatiy muddatlardan og’gan holda chop etilishiga ruxsat berdi. Bankning COVID-19 ga javobi va ushbu og’ish haqida batafsil ma’lumotni bizning veb-saytimizda topishingiz mumkin.

Moliyaviy vositachilik mexanizmi (FIF) asosida “Ipoteka-bank” ATIB (“IB”) uchun 30 million AQSH dollarigacha bo’lgan birinchi navbatdagi ta’minotsiz kredit berish.

## Loyiha maqsadi

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag’lar IB’ning mayda, kichik va o’rta biznes korxonalari (MKO‘BK) bo’lgan mijozlariga COVID-19 pandemiyasi sababli tadbirkorlik sohasida yuzaga kelgan keng ko’lamli to’xtalishlarni tiklashga yordam beradi. Mazkur kredit mablag’i tegishli Dasturiy yo’nalish tartiblarida ko’rsatilgan muvofiqlik mezonlariga muvofiq IB’ga o’tkaziladi.

## O’tish davri ta’siri

Ushbu loyiha (i) moliyaviy mablag'lardan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali KO'BK'ning raqobatbardoshligini oshirish va (ii) KO'BK'ni kreditlash bilan bog'liq marketing, strategiya, mahsulot va jarayonlarga yangiliklarni joriy etish orqali moliya institutlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Moliya institutlarining andarrayting va xatarlarni boshqarish bo'yicha yaxshi amaliyotga ega bo'lishini ta'minlash orqali, FIF moliyaviy tizimning qat'iyligini ta'minlagan holda, kreditlashning barqaror uslublarini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

## **Mijoz haqida**

“IPOTEKA-BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT IPOTEKA BANKI

“Ipoteka-bank” O'zbekistondagi yetakchi moliya institutlaridan biri bo'lib, u 2019-yil yakunlariga ko'ra bozor ulushi qariyb 8,7% bo'lgan aktivlari bo'yicha mamlakatdagi banklar orasida 4-o'rinda turadi. Bu bank butun respublika bo'ylab o'zining 39 ta filial va 100 dan ortiq mini-banklardan iborat keng tarmog'i orqali barcha tijorat bank xizmatlarini taqdim etadi. IB aksiyadorlarning ko'p sonli tuzilmasiga ega bo'lib, uning eng ko'p sonli aksiya paketlari O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishlidir.

## **YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar**

30 000 000,00 AQSH dollari

## **Loyihaning umumiy qiymati**

30 000 000,00 AQSH dollari

## **Ekologik-ijtimoiy xulosa**

FI toifasiga kiritildi (ESP 2019) Mazkur bank avval Savdoga ko'maklashuvchi dastur (TFP) va KO'BK kredit liniyalari bo'yicha moliyaviy mablag'lar olgan YTTB'ning mijozi hisoblanadi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) yangilangan ekspertiza so'rovnomasi sharhi va qarz oluvchining mavjud Tevarak atrof va ijtimoiy muhitni boshqarish rejasini (ESMS) o'z ichiga olgan bo'lib, u hozirda Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ko'magi bilan yangilanmoqda. Uning ESMS rejasini, umuman olganda, loyiha talablariga (PR 9) mos keladi va IB yangilangan yo'llanmalari va istisnalar ro'yxatini taqdim qilganidan so'ng hamda o'z ESMS rejasini YTTBning korporativ, kichik va o'rta biznes korxonalari va mikrokreditlar uchun atrof-muhit va ijtimoiy xatarlarni boshqarish tartib-qoidalariga moslashtirganidan so'nggina YTTB ESP 2019'ga to'liq mos keladi. Qarz oluvchi PR2 va PR4 talablarini bajarishda davom etishi zarur.

Xususan, PR2 bo'yicha, qarz oluvchi yaqinda qayta tuzilmalashtirish va amaliy o'zgartirish dasturi bilan bog'liq ravishda xodimlar sonini ma'lum darajada qisqartirdi va bu IFC tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu jarayonda tegishli PR2 talablarini tegishli tarzda hisobga olinganligiga ishonch hosil qilish maqsadida, hozirda bu jarayon ko'rib chiqilmoqda. Qarz oluvchi har yili Bankga atrof-muhit va ijtimoiy sohaga oid hisobotlarni taqdim etishi shart.

## **Texnik ko'mak**

Ko'zda tutilmagan.

## Qo'shimcha shartlar

Qo'shimcha shartlar quyidagilar majmuasidan kelib chiqadi:

*COVID-19 inqiroziga qarshi kurash:* YTTB'dan ajratiluvchi bu moliyaviy mablag' bozorning noqulay sharoitlari, masalan, o'rta va uzoq muddatli kreditlar uchun jiddiy ta'sir qilishda davom etayotgan COVID-19 inqirozi tufayli mablag'larda yuzaga kelgan bo'shliqlarni samarali ravishda to'ldirmoqda.

*Moliyaviy tuzilma:* YTTB hozirgi bozor sharoitida boshqa tijorat manbalaridan olishning imkoni yo'q bo'lgan moliyalashtirishni taklif etadi.

*Siyosat, sektor, muassasaga oid yoki tartibga solishdagi o'zgarishlar:* YTTB'ning ishtiroki va u keltiradigan barcha nomoddiy imtiyozlar "Ipoteka-bank" va umuman olganda, mazkur sektorni raqobatbardosh va tijorat biznes modeliga bosqichma-bosqich o'tishiga hissa qo'shishi kutilmoqda.

Bu esa, 2020-yil may oyida tasdiqlangan O'zbekiston bank sektori strategiyasida ham ko'zda tutilgan.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Rustam Pol'atov

[Rustam.Pulatov@ipotekabank.uz](mailto:Rustam.Pulatov@ipotekabank.uz)

+998 (78) 147-47-13

+998 (78) 150-98-25

<https://www.ipotekabank.uz>

JSCMB #Ipoteka-bank# Shakhrisabz 100000 O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Shakhrisabz ko'chasi 30-uy.

## LQM o'zgartirilgan oxirgi sana

2020-yil, 15-oktabr

## O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumot bilan mana bu [havoлада](#) tanishishingiz mumkin.

## Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling. YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun YTTB xaridlari sahifasiga o'ng:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar YTTB [so'rovlar](#) shaklidan foydalangan holda berilishi mumkin.

## Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlanish" tashabbusini ilgari surishda Ekologik va ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) electron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. Mavjud ma'lumotlar bilan tanishib chiqish uchun YTTB veb-saytidagi [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ng.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

## Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi ya'ni IPAM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

IPAM, arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyihaning manfaatdor tomonlari o'rtasida ekologik, ijtimoiy va axborotni ommaviy oshkor qilish bo'yicha

muammolarini hal etishdagi murosani qo'llab-quvvatlash, Bank o'zining [Ekologik va ijtimoiy siyosatiga](#)yoki [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#)ning loyihaga oid tartiblariga rioya qilayotganini tekshirish va zarur hollarda, kelajakda ushbu qoidalarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, shuningdek, Bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olishdan iborat.

Loyiha so'rovlarini [Maxfiy onlayn shakl](#), [elektron pochta](#), [pochta yoki telefon](#) orqali qanday jo'natish haqidagi ma'lumotlarni Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi veb-sahifasidan topishingiz mumkin. IPAM sizda yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilish, shuningdek, [Loyiha bo'yicha hisobdorlik siyosati](#) va [ko'rsatmalariga](#) mos keluvchi so'rovlarni yuborish yoki ko'rib chiqish bilan bog'liq barcha savollarga javob berish uchun doimo tayyor. Kerak bo'lsa, arizachilarning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlaymiz.